

TARIXIY MEROSNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI XALQARO MIQYOSDA TARG'IB QILISH

Rahimova Zeboxon O'ktam qizi ¹

¹ Urganch davlat universiteti Tarix ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email: rahimovazeboxon04@gmail.com

Orcid.org/0009-0001-3014-7105

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 01.07.2025

Revised: 02.07.2025

Accepted: 03.07.2025

KALIT SO'ZLAR:

“3D
modellashtirish”,
“virtual muzeylar”,
“GIS”, “turizm”,
“raqamlashtirish”,
“skanerlash”.

Mustaqillikka erishganimizdan beri tarixiy-madaniy merosimizni saqlash va butun dunyoga tanitish dolzarb masala bo'lib kelgan. Ushbu maqolada tarixiy-madaniy merosni raqamli texnologiyalar vositasida saqlash va uni xalqaro miqyosda targ'ib etish masalalari yoritiladi. Xususan, 3D modellashtirish, virtual muzeylar, raqamli arxivlar va geoaxborot tizimlarining milliy tarixni keng auditoriyaga taqdim etishdagi o'rni tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning turizm, ta'lim va madaniy diplomatiya sohalarida qo'llanilishi orqali milliy merosni global darajada ommalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi va mavzuga doir ba'zi xulosalar beriladi.

KIRISH. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar insoniyatning deyarli barcha faoliyat sohalarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, tarixiy va madaniy merosni asrash, tadqiq etish hamda ommalashtirishda bu texnologiyalar o'ta muhim vositaga aylandi. 3D modellashtirish, virtual muzeylar, raqamli arxivlar, geoaxborot tizimlari (GIS) va sun'iy intellekt asosidagi platformalar bugungi kunda xalqaro maydonda milliy tarixni keng tanitishning samarali yo'li sifatida qaralmoqda. O'zbekistonning Xiva, Buxoro, Samarqand kabi tarixiy shaharlarini raqamli formatda targ'ib etish imkoniyatlari ham aynan shu kontekstda alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar orqali tarixiy merosni xalqaro miqyosda taqdim etishning usullari va imkoniyatlari yoritiladi.

O'zbekistonda tarixiy yodgorliklar, ulug' ajdodlarimizning yuksak iste'dodi bilan bunyod etilgan obidalar, muqaddas qadamjolar kabi 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu sababli, keyingi yillarda davlatimiz tomonidan mazkur yo'nalishni rivojlantirish bo'yicha ko'plab normativhuquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6-apreldagi "Turizm, sport va madaniy meros sohalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-6199 sonli Farmoni ga binoan Turizm va sport vazirligi huzurida Madaniy meros agentligi tashkil etildi. Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish davlat reyestri, elektron katalogi, davlat kadastrini yuritish, qo'riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada davlat nazoratini amalga oshirish kabilar agentlikning asosiy vazifalari sifatida belgilanganligi mamlakatimizda tarixiy-madaniy turizmni yanada rivojlantirishga oid tizimli ilmiy-metodologik tadqiqotlar olib borish muhim [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS)

Bir qator tadqiqotchilar, masalan, Bahodir Yusupov (2018), O'zbekistonning madaniy turizm sohasidagi iqtisodiy ta'sirini, turizmning iqtisodiy o'sishga qanday hissa qo'shishini o'rganishga qaratilgan. Yusupov, madaniy turizmni rivojlantirish orqali mamlakatning ichki va tashqi iqtisodiyotiga ta'sirini, yangi ish o'rinlarini yaratish va hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shuningdek, Asliddin Tursunov (2020) o'zining "Madaniy turizmni rivojlantirishning ilmiy metodlari" nomli asarida madaniy turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ilmiy yondashuvlarni va metodlarni tahlil qiladi. U madaniy turizmning ta'siri, ahamiyati, shuningdek, ularni rivojlantirishda qo'llaniladigan turli metodologiyalarni keltirib, bu sohadagi mavjud bo'shliqlarni aniqlaydi. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda madaniy turizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham ahamiyatli. Bunday ishlar, masalan, Nyutman va boshqalar (2015) tomonidan olib borilgan tahlillar, madaniy turizmning xalqaro miqyosda rivojlanishi, xalqaro turizm va madaniy turizm o'rtasidagi farqlarni ko'rsatadi. O'zbekistonning madaniy turizmni rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mamlakatda yangi metodlarni qo'llashga yordam beradi. Adabiyotlar tahlili va metodologiya O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish borasidagi ilmiy ishlarni yanada chuqurlashtiradi va tadqiqotning muvaffaqiyatli o'tkazilishiga yordam beradi [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Moddiy-madaniy merosni tadqiq etish tamoyillari Tadqiqotlar quyidagilarga asoslanadi: Kompleks yondashuv (arxeologiya, tarix, san'atshunoslik va boshqa sohalarning o'zaro uyg'unligi), avtentiqlik va tarixiy haqqoniylikni ta'minlash, hududiy va kontekstual o'rganish. Innovatsion metodlardan foydalanish (3D skanerlash, raqamlashtirish va boshqalar). Moddiy-madaniy merosni targ'ib va tadqiq etishning zamonaviy shakllari. Bugungi kunda moddiy-madaniy merosni targ'ib qilish va tadqiq etishda quyidagi shakllar

keng qo'llanilmoqda. Muzeylar va ko'rgazmalar tashkil etish, xalqaro festivallar va ilmiy ekspeditsiyalar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib qilish, virtual ekskursiyalar va raqamli platformalar yaratish. O'zbekiston tajribasi: muammolar va istiqbollar O'zbekistonda so'nggi yillarda katta yutuqlarga erishildi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlar UNESCO ro'yxatiga kiritildi, ko'plab restavratsiya ishlari amalga oshirildi, madaniy meros obyektlarini xalqaro miqyosda tanitish ishlari olib borilmoqda. Biroq, ayrim muammolar ham mavjud. Moliyalashtirish yetishmovchiligi, malakali mutaxassislar tanqisligi, aholi orasida madaniy merosni asrashga nisbatan yetarli ong shakllanmagan. Kelgusida quyidagilarni amalga oshirish lozim. Ta'lim tizimiga madaniy merosni asrash bo'yicha maxsus kurslar joriy etish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerak [3].

O'zbekistonning moddiy madaniy merosini targ'ib va tadbiq etish – faqat milliy madaniyatni saqlash emas, balki uni global kontekstdagi raqobatbardosh brendga aylantirishdir. Raqamlashtirish, marketing, kadrlar tayyorlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali O'zbekiston o'z boy merosini dunyo miqyosida keng tanitish imkoniga ega bo'ladi [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Bugungi kunda moddiy-madaniy merosni asrash va targ'ib etishda zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanilmoqda: 3D skanerlash texnologiyalari yordamida tarixiy obidalar elektron shaklda saqlanmoqda. Raqamli muzeylar va virtual ekskursiyalar orqali dunyoning istalgan nuqtasidan tarixiy yodgorliklarni ko'rish imkoniyati yaratilmoqda. Restavratsiya robotlari yordamida nozik va murakkab tiklash ishlari amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellekt asosida qadimiy yozuvlar va naqshlarni tiklash loyihalari amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda ham Toshkent, Samarqand va Buxoroda ko'plab raqamli arxivlar yaratish ishlari olib borilmoqda [5].

Zamonaviy texnologiyalar madaniy obyektlarni muzeylashtirishda muhim o'rin tutadi. Virtual haqiqat (VR), raqamli rekonstruksiya va multimedia ko'rgazmalari orqali tarixiy joylarning global auditoriyaga taqdim etish mumkin. Surxon vohasidagi yodgorliklarni raqamlashtirish va ularni onlayn platformalar orqali taqdim etish xalqaro ilmiy doiralar va sayyohlar uchun ularga yetib borishni osonlashtiradi. Yana bir muhim jihat shundaki, raqamli texnologiyalar obyektlarni asrab-avaylash va ularning hozirgi holatini monitoring qilishda yordam beradi. Buyodgorliklarning tabiiy ofatlar yoki insoniy aralashuv natijasida zarar ko'rishining oldini olish uchun muhimdir [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Zamonaviy raqamli texnologiyalar tarixiy merosni asrash, saqlash va uni jahon hamjamiyatiga keng targ'ib qilishda muhim vositaga aylanmoqda. 3D modellash, virtual va kengaytirilgan reallik, raqamli arxivlar hamda onlayn platformalar orqali boy madaniy merosimiz nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlar uchun ham saqlanib qolmoqda. Bu texnologiyalar yordamida tarixiy yodgorliklar jonlantirilib, global miqyosda interaktiv

va vizual tarzda namoyish etilishi imkoniyati yaratilmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik va axborot texnologiyalari integratsiyasi orqali O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy boyliklarini jahon ilmiy va madaniy muhitiga olib chiqish mumkin. Bu esa milliy merosimizni global darajada tanitish, turizm va ilmiy izlanishlar salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar vositasida tarix va madaniyatni zamonaviy shaklda taqdim etish – bu yangi avlodga tarixiy ongni yuksak darajada yetkazishning eng samarali yo'lidir.

Adabiyotlar ro'yxati (Использованная Литература / References):

1. Erkayeva B. "O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari"/ "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil 6/2021 (№ 00056) <http://iqtisodiyot.tsue.uz> 426-427-b
2. Nosirov X. "O'zbekistonda madaniy turizmni rivojlantirish" Yosh Olimlar Ilmiy-Amaliy Konferensiyasi/ in-academy.uz/index.php/yo 95-b
3. Ro'ziqulov A "O'zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ'ib va tadqiq etish tamoyillari"/ "Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. -Toshkent, 2025-yil 16-may. 95-b.
4. Yo'ldasheva M "O'zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ'ib va tadqiq etish tamoyillari: muammolar va yechimlar"/ "Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. -Toshkent, 2025-yil 16-may. 187-b
5. Ro'ziqulov A. "O'zbekistonning moddiy-madaniy merosini targ'ib va tadqiq etish tamoyillari"/ "Moddiy-ma'naviy meros va umumbashariy qadriyatlar" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. -Toshkent, 2025-yil 16-may. 96-b.
6. Tashniyazov S. "Surxon vohasi misolida madaniy me'ros obyektlarini muzeylashtirish"/ "Ilm-fan axborotnomasi" [www. worldly journals.com](http://www.worldlyjournals.com). 9son, Dekabr, 2024. Worldly knowledge nashriyoti. 542-b.